



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA IFODALI O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

---

*Rajabboyeva Sarvinoz Dilshod qizi*  
*UrDPI Pedagogika fakulteti*  
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish fani orqali ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** asar, she'r, hikoya, ertak, sujet, ifodali o'qish.

Xalqimizda: "Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir", - degan maqol bejiz aytilmagan. Darhaqiqat bolaga yoshligidan puxta bilim berilsa, poydevor mustahkam bo'ladi va yuqori sinfda barcha fanlarni qiynalmasdan o'zlashtira oladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish bilan bir qatorda ularning og'zaki nutqini ham o'stirish, ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish talab qilinadi. Buning uchun o'qish fanlarida darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga kichik hajmdagi hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotirlar, maqol, tez aytishlar, dostonlardan parchalar o'qitiladi.

Turli janrdagi asarlar sujeti, uslubiy bo'yog'i, til vositalarining o'ziga xosligi jihatidan o'quvchiga har xil ta'sir qiladi. O'qish darslarida o'qituvchi o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlarini inobatga olgan holda shunga mos pedagogik texnologiyalardan foydalanishi lozim.

Hikoya-kichik epik tur janrlaridan biri. Hikoyada kishi hayotidagi ma'lum bir voqeaning kichik tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoyadagi ana shu ixchamlik, obrazlarning kamligi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos keladi. Hikoyani o'qish orqali o'quvchilar obrazlarning ruhiy holatini emas, balki ularning harakati, nutqiga ko'proq qiziqadilar. Qiziqarli sujetga boy hikoya o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi:

1. Ifodali o'qish;
2. Matnni qayta hikoyalash;
3. Lug'at ustida ishlash;
4. Qahramonlarni aniqlash;
5. Savol-javob orqali voqea-hodisalarni takrorlash.



Hikoyani o'qitishda faqat hikoyaning mazmunini o'zlashtirishidan tashqari o'quvchilarning ifodali badiiy o'qishini ham shakllantirish lozim. Bunda asosan hikoya qahramonlarini rollarga bo'lib "Rolli o'qish" metodidan foydalanish mumkin. O'quvchi qaysi rolda bo'lsa o'sha qahramon qiyofasiga kirib, ovoz tonini moslab ifodali o'qiydi. Bu sinfda oddiy o'qish usuliga ko'ra o'quvchilarning rolni bajarishga qiziqib o'qishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limning "O'qish" darslarida ertak janriga ham alohida e'tibor berilgan. Ertaklarni o'qitishda faqatgina shunchaki o'qib qo'ymasdan, ertak asosida qiziqarli topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilar tomonidan mavzuning oson o'zlashtirilishiga ko'mak beradi. 3-sinf "O'qish" kitobida **Zohir A'lam qalamiga mansub «Soy suvi haqida ertak»** berilgan. Ertakni o'qitishda o'qituvchi quyidagi usullarni qo'llashi mumkin:

O'quvchilar **lug'at ustida ishlaydilar**: tanob-yer olchash uchun ishlatiladigan uzun chilvir; chetan-aravada sochiluvchi yuklarni tashish uchun tol, tut novdalaridan to'qib yasalgan maxsus kuzov; soy-ikki adir yoki tog' oralig'idagi pastlik joy, suv yo'li, vodi.

Ertak o'quvchilarga **navbat bilan o'qitiladi**. Ertakni o'qish jarayonida o'quvchilarning o'qishi o'rtoqlari tomonidan kuzatib boriladi. Yutuq-kamchiliklari tuzatiladi. **Savol-javobdan** foydalanib, o'quvchilarning ertak yuzasidan olgan bilimlari hisobga olinadi:

- Hikoyada qaysi zamondagi voqea tasvirlangan?
- Dehqonning xatosi nimadan iborat?
- Dehqon xatosini qachon, kimdan bildi? Nima uchun?

Aytilgan nomlarni o'qituvchi yozuv taxtasiga yozib boradi. O'quvchilar ertak mazmunini puxtaroq bilishlari uchun matnga doir savol va topshiriqlardan hamda o'quvchilarning o'zaro savollaridan foydalanib asar tahlil qilinadi. Tahlil ertakni **rollarga bo'lib o'qishdan** boshlanadi.

**G'oyani ochish**. Asosiy g'oyani ochishga yordam beradigan lavha qor va dehqon suhbatiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi. Matndan topib o'qitiladi. O'qituvchi: - Qorning so'zlaridan nimalarni bilib oldingiz?

O'quvchilar: - Qorning so'zlaridan daraxtlarning vazifasini, suvning yo'q bo'lib qolishida dehqonning aybdor ekanini bilib oldik. Hodisa va sabablarni aniqlashni o'rgandik. **Aqliy hujumdan** foydalanib, ertak qahramoniga baho berish.

- Dehqonga qanday tavsif berasiz?
- Dehqon asar boshida qanday edi? Oxirida-chi?
- Dehqondagi fazilatlarni ayting.



- Dehqonni mehnatsevar desa bo'ladimi?

O'qituvchi o'quvchilardan: dehqon ertak boshida kambag'al, ezilgan, mehnatkash, ishbilarmon, ammo shoshqaloq tarzda tasvirlangan. Ertak oxirida esa dehqon xatosini tuzatadigan, birovlarining maslahatiga quloq soladigan inson sifatida berilgan. Demak, biz dehqondan bir ishda xato qilmaslik uchun o'ylab ko'rish, xato qilib qo'ysa, o'z xatosini tushunish, o'z vaqtida tuzatish kerakligini o'rgandik,-degan javobni oladi. Javoblarni umumlashtirib, mavzuni mustahkamlaydi. Darsning yakunida: «Birni kessang, o'nni ek» maqoli tahlil qilinadi. Mavzuga bog'lanadi. Daraxtlarning ahamiyatini, ularni ko'paytirish, parvarish qilish o'quvchilarga uqtiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish usullaridan yana biri she'rni ifodali o'qitishdir. She'r o'rganish darslarinitashkil qilishdagi asosiy ish turi ifodali o'qishdir. Buning uchun o'qituvchi avvalo o'zi she'rni lirik his qila olishi va o'quvchiga yuqtira bilishi lozim. O'qituvchi she'rni eng avvalo o'zi ifodali o'qib beradi va matnni tahlil qiladi. Lug'at so'zlarini o'quvchilar daftariga yozdiradi, hamda ma'nosini izohlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish, fikrlash doirasini kengaytirishda badiiy adabiyotning, kichik adabiy janrlarning ahamiyati katta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Inomxo'jayeva, A.Zunnunova Ifodali o'qish asoslari. T.: 1978
2. O'qish kitobi (3-sinf darsligi). T.: